

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lif muassasalarida o'quv sifatini oshirish jarayoni, ota bobolarimiz kim bo'lgan? Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi universitetlar tajribasidan foydalangan holda yangi texnologiyalarni yurtimiz talim muassasalariga taqbiq etish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek maqolada AQSh Rossiya hamda O'zbekiston talim tizimidagi farqlar ochib berilgan.

Kalit so'z: Pedagogika, yangicha texnologiyalar, Amerika qo'shma shtatlari, Rossiya, Buyuk Britaniya, Standford, Harvard, Yale, Massachusetts university.

Talim muassasalarida talim sifatini oshirish uchun nimalar qilish zarur?

Talim muassasalarini zamonaviy jihozlar bilan taminlash hamda talabalarga talim berayotgan o'qituvchi murabbiylarni sifatli kadr qilib yetishtirib olish zarur. Pedagog ustoz murabbiylar darsni sifat qila olsa shundan so'ngina bola o'sha sohaga qiziqa boshlaydi, talim sifati oshadi, yetuk bilimli kadrlar yetishib chiqishi oshadi.

*Dunyoqarashni nima o'zgartiradi – ilm, daromad, manfaat.*

**Sh Mirziyoyev**

Bu so'zlar bejiz aytilmagan bu so'zlar biz kimlarning avlodlarimiz? Kim bo'lishimiz kerak degan savollarga javob demakdir.

Bizga malum bo'lgan ko'plab fan va bilimlarning asoschilari kimlar?

O'rta Osiyolik buyuk qomusiy olim – Abu Ali ibn Sino tabiatshunos, musiqashunos, matematik, tibbiyot dahosi, astronom, shoir va yozuvchi.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (1394-1439) o'zidan ilmiy va madaniy meros, "Ziji jadidi Ko'ragoniy" – "Ulug'bek ziji" ni qoldirgan

Mirzo Ulug'bekning ustozи matematik va astronom Qozizoda Rumiy (taxminan 1360-1437) hamda Al Xorazmiy va boshqa dunyoda ilmu fan ustozlari chiqqan yurtda yashasak ham hozirda ilm fan texnologiya bo'yicha Yevropa bizdan yuqorilarga chiqib ketdi. Masalan: AQSHning , Standford, Yale, Massachusetts universitetlari ta'lif sohasida dunyoda kuchli uchlikda bormoqda.

Yevropa ta'lif standartlari amaliyotda qanday qo'llaniladi?

AQShda ta'lif darajalari quyidagicha amalga oshiriladi: birinchi bosqich - asosiy oliy ma'lumot:

Dastlab 2 yillik tayyorlov kurslariga (O'zbekistonda texnikumlarga to'g'ri keladi) shundan so'ng asosiy bosqich 4 yillik bakalavr bosqichi.

Talaba o'rganayotgan mutaxassislik huquqshunoslik bo'lsa ixtisosligi bo'yicha talaba huquqshunos bakalavr darajasini oladi. Asosiy mutaxassislik esa universitetda o'qishning uchinchi bosqichida talaba tomonidan tanlanadi.

Qo'shma shtatlarda oliy ta'lif tizimining o'ziga xos jihatni shundaki, talaba o'qish mobaynida "asosiy" yo'nalishini bir necha marta o'zgartira olishida bu esa talaba o'zi xohlagan kasb egasi bo'lish imkoniyatini beradi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki inson o'zi

xohlagan ishi bilan shug'ullanishi ish unumini va samaradorligini bir necha barobarga oshiradi.

**Ikkinchchi bosqich** – magistr bu bosqichda talabadan bir yoki ikki yillik dasturni o'zlashtirishi so'ngra esa tezis hamda magistrlik loyihasini yozish va himoya qilish talab etiladi.

So'nggi bosqich doktorantura bu talabalarga o'zining sohasini eng yetuk mutaxassisini ekanini bildiruvchi doktorlik unvoni uchun zarur.

Bu yuqorida ko'rsatilgan dunyo tan olgan universitetlar Standford, Harvard, Yale, Massachusetts universitetlari o'qish haftasiga 4 kun olib boriladi qolgan 3 kun esa mustaqil talim yoki olgan bilimlarni amalyotda qo'llash uchun ajratiladi. Yana u yerdagi ta'limenti o'ziga xos jihatni shundaki talaba faqat va faqat mutaxasislik fanlari bo'yicha bilim ko'nikmalarni o'zlashtiradi masalan: huquqshunoslar huquq fanlarini, shifokorlar tibbiyot fanlarini.

Rossiyada Moskva davlat universitetidagi ta'lim ham maqtasa arzigulik darajada, sababi u yerdagi talabalar bilim olishi uchun yaratilgan imkoniyatlar juda yuqori bunga misol tariqasida universitetdagi "cofe language" burchaklari. Bu markazlarning asosiy vazifasi talabalarga boshqa millat tillarini mukammal o'rganishga xizmat qiladi, bu qanday amalga oshiriladi desangiz buni talabalarning o'zlari muloqot qilgan holda bir birlariga o'rgatishadi va o'rganishadi chunki har bir "cofe language" uchun ajratilgan joy biror bir tilga ixtisoslashtiriladi masalan "cofe English"da talabalar faqar ingliz tilida muloqot qilishadi, yoki "cofe Russian"da rus tilida suhbat qurishadi.

Yurtimizda ta'limenti rivojlantirish uchun nimalar qilish zarur?

Bu va bunga o'xshagan savollarga qisqa holda javob bersak yevropa ta'lim standartlariga o'tish deb javob bergan bo'lardim yoki keng qamrovli javob beradigan bo'lsam talaba o'quvchilarga mustaqil erkin bilim olishlariga, (ortiqcha qog'ozbozlik, konsekt, keraksiz fanlarni o'qishga majburlamaslik, o'z bilimlarini ko'proq amalyotda qo'llashlariga) imkon berishimiz zarur degan bo'lar edim. Bundan tashqari talabalarimiz o'z bilimlarini kutubxona yoki internet orqali bilim ko'nikmalarini oshirishi kerak bo'lgan vaqtida hali ham bizning talabalar qimmat vaqtlarini talim muasasalarda olti yetti soatlab o'tkazishmoqda. Bu esa faqat va faqat sifatsiz kadr yetkazib berishga xizmat qilmoqda deb hisoblayman. Biz talabalarga nomutaxasis fanlarni o'qitishni yoki olti yeti soat vaqtlarini o'g'irlagandan ko'ra mutaxasislik fanlarni chuqurroq qisqa vaqtida o'qitgan holda bu bilimlarni amalyotda qo'llashlariga imkon berishimiz shart va zarur.

"Agar mendan sizni nima qiynaydi?" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman.

*Sh Mirziyoyev*

Mustaqillik yillarda mamlakatimiz ta'lim tizimidagi keng qamrovli islohotlar tezda samara berib, jahon hamjamiyatining havasini keltirayotgani bejiz emas. Zotan, O'zbekistonda taraqqiyotning muhim bo'g'ini va barcha islohotning pirovard maqsadiga aylangan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "**Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli,**

**bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart” degan g'oyasi xalqimiz qalbida xamisha nish urgan azaliy orzu-umidlardan suv ichgan.**

***I.Karimov***

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak yurtimizda yoshlar uchun ularni bilim olishlari uchun yurtboshimiz tomonidan katta imkonyatlar berilayotgan vaqtda Yevropa davlatlarining ta'lim standartlarini yurtimiz o'quv tizimiga moslashtirish va bundan oqilona foydalamishimiz shatr va zarur.